



NOTO'LIQ OILA VA UNDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARNING YUZAGA KELISHI

Rustamova Mo'tabar Ravshanovna

Alfraganus universiteti, "Psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi,

e-mail: rustamova.motabar@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur tezisda noto'liq oilaning mohiyati, vujudga kelish sabablari hamda unda kuzatiladigan ijtimoiy-psixologik muammolar kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, xorij psixolog olimlarining ilmiy qarashlariga tayangan holda noto'liq oilalarning farzand psixikasi, tarbiya jarayoni va oilaviy muhitga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: noto'liq oila, ajralish, ijtimoiy muammolar, psixologik muammolar, farzand taraqqiyoti, oila psixologiyasi.

Abstract: This thesis analyzes the essence of a dysfunctional family, its causes, and the socio-psychological problems observed in it based on a comprehensive approach. It also sheds light on the impact of dysfunctional families on the child's psyche, the upbringing process, and the family environment, based on the scientific views of foreign psychologists.

Keywords: dysfunctional family, divorce, social problems, psychological problems, child development, family psychology.

Аннотация: В данной работе на основе комплексного подхода анализируется сущность дисфункциональной семьи, ее причины и наблюдаемые в ней социально-психологические проблемы. Также рассматривается влияние дисфункциональных семей на психику ребенка, процесс воспитания и семейную среду с точки зрения научных взглядов зарубежных психологов.

Ключевые слова: дисфункциональная семья, развод, социальные проблемы, психологические проблемы, развитие ребенка, семейная психология.

Kirish

Bugungi globallashuv va jamiyat taraqqiyoti sharoitida oilaning ijtimoiy instituti muayyan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, madaniy qadriyatlarining transformatsiyasi, migratsiya jarayonlari hamda oilaviy munosabatlardagi beqarorlik Asnatijasida noto'liq oilalar sonining ortib borishi kuzatilmoqda. Mazkur holat jamiyat barqarorligi, yosh avlod tarbiyasi va shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatgani sababli muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Noto'liq oilalarda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar, xususan, iqtisodiy yetishmovchilik, tarbiyaviy nazoratning susayishi, emotsional muvozanatning buzilishi hamda bolalarda ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari jamiyatning kelajak taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarning shaxs sifatida shakllanishida oilaning yetakchi roli inobatga olinsa,





noto'liq oilalar muammosini chuqur o'rganish va ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan, noto'liq oilalarda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tahlil qilish hamda samarali profilaktik va korreksion chora-tadbirlarni belgilash bugungi kunda oila psixologiyasi fanlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Noto'liq oila deganda ota yoki onadan birining yo'qligi sababli shakllangan oila tushuniladi. Bu holat ko'pincha ajralish, vafot etish, mehnat migratsiyasi yoki nikohsiz farzand tarbiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Sotsiolog olim E.Giddens ta'kidlaganidek, globallashuv jarayonlari va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi oilaviy institut barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [3].

Noto'liq oilalarda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolar, avvalo, iqtisodiy yetishmovchilik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning cheklanganligi hamda tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi. Daromadning kamayishi ota-onaning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. R.Mertonning ijtimoiy moslashuv nazariyasiga ko'ra, jamiyat tomonidan yetarli imkoniyat va resurslar taqdim etilmagan sharoitda oilada ijtimoiy nomutanosiblik yuzaga keladi [5].

Psixologik jihatdan esa noto'liq oilalar bolalar shaxsining shakllanishida muhim xavf omili hisoblanadi. L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivoji ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, oiladagi emotsional muhitning buzilishi bola rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etgan [6]. A.Adler fikricha, ota yoki ona obrazining yetishmasligi farzandda noto'liqlik hissi va o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin [1].

Shuningdek, A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bola xulq-atvor va ijtimoiy rollarni asosan ota-onani kuzatish orqali o'zlashtiradi. Noto'liq oilalarda ushbu jarayonning to'liq amalga oshmasligi bolalarda emotsional beqarorlik, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy tortinchoqlik kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin [2]. Ota yoki onaning o'zi esa ortiqcha mas'uliyat yuklanishi natijasida stress va psixologik charchoqni boshdan kechiradi.

A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, bolaning xavfsizlik, mehr va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ehtiyojlari qondirilgan taqdirdagina uning to'laqonli rivojlanishi ta'minlanadi [4]. Psixologik maslahatlar, ijtimoiy himoya choralari, ta'lim muassasalari va mahalla institutlarining hamkorligi orqali noto'liq oilalardagi muammolarni kamaytirish mumkin.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham noto'liq oilalarda tarbiyaviy nazoratning susayishi, bola va ota-ona o'rtasidagi emotsional masofaning ortishi hamda ijtimoiy moslashuv muammolari ko'proq uchrashi ta'kidlanadi. Bu holatlar maktab muhitida o'quv faoliyati va xulq-atvorda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois noto'liq oilalar bilan ishlashda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Noto'liq oilalarda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik muammolar jamiyat barqarorligi va yosh avlod tarbiyasiga bevosita hamda uzoq muddatli ta'sir





ko'rsatadi. Bunday oilaviy muhitda tarbiyalanayotgan bolalarda ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlik va shaxsiy rivojlanish jarayonlarida muayyan qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan xulosa qilish mumkinki, mazkur muammolarni samarali bartaraf etish faqatgina alohida chora-tadbirlar bilan emas, balki tizimli, ilmiy asoslangan va fanlararo hamkorlikka yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi. Xususan, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va jamoatchilik institutlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik orqali noto'liq oilalarda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, bolalarning to'laqonli rivojlanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Adler A. The Practice and Theory of Individual Psychology. – London: Routledge & Kegan Paul, 1956. – 308 p.
2. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
3. Giddens E. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 1040 p.
4. Maslow A. H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 411 p.
5. Merton R. K. Social Theory and Social Structure. – New York: Free Press, 1968. – 702 p.
6. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159p.

